



**O'ZBEKISTON-TOJIKISTON DAVLATLARINING SAVDO-
IQTISODIY VA INVESTITSIYAVIY MUNOSABATLARI (2017-2024-
YILLAR)**

Bozorov Shuxrat Azamiddinovich

Kitob tumani 12-umumiy o'rta ta'lim maktabi

tarix fani o'qituvchisi

2017–2024-yillar Markaziy Osiyo mintaqasida yangi geoiqtisodiy muhit shakllangan davr sifatida tarixga kirdi. Aynan shu yillarda O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qo'shni davlatlar bilan o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnichilik va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash strategiyasini ilgari surdi. Ushbu davrda eng jadal rivojlangan hamkorlik yo'nalishlaridan biri O'zbekiston–Tojikiston munosabatlaridir. Avvallari tarixiy, madaniy va etnik mushtaraklikka ega bo'lsa-da, ikki davlat o'rtasida 2000-yillar boshlarida mavjud bo'lgan ayrim siyosiy-iqtisodiy kelishmovchiliklar tufayli hamkorlik sezilarli darajada sustlashgan edi. Biroq 2017-yildan boshlab ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi.

Mazkur o'zgarishlar avvalo O'zbekiston rahbariyati tomonidan tashqi siyosatda amalga oshirilgan ochiqlik siyosati, qo'shni davlatlar bilan integratsion hamkorlikni kengaytirish tashabbuslari, shuningdek, Tojikiston Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga intilishi natijasida yuzaga keldi. ikki davlat prezidentlarining o'zaro uchrashuvlari, hukumat delegatsiyalarining samarali muzokaralari, iqtisodiy forumlar va biznes anjumanlarning tashkil etilishi savdo va investitsion hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamladi.





2017-yil tarixiy yil bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlar tarixida burilish yasadi. Shu yildan boshlab davlatlar o'rtasida savdo aloqalarini rivojlantirish, energetika, transport-logistika, gidroenergetika, qishloq xo'jaligi, sanoat kooperatsiyasi kabi ustuvor sohalarda hamkorlik bitimlari imzolandi. Shuningdek, o'zaro chegara hududlarida savdo-sanoat zonalari tashkil etildi, tranzit-logistika yo'laklari ochildi va xalqaro yuk tashish yo'nalishlari tiklandi.

O'zbekiston–Tojikiston iqtisodiy munosabatlarining kuchayishida ikki davlatning o'zaro manfaatlari muhim omil bo'ldi. Tojikiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan gidroenergetika sohasi O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega, chunki ikki davlat ham umumiy suv resurslariga ega bo'lgan yagona transchegaraviy daryo havzasida joylashgan. Boshqa tomondan, Tojikiston O'zbekiston sanoati uchun iste'mol bozoriga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, to'qimachilik xomashyosi va qurilish materiallari bilan iqtisodiy almashinuvni kengaytirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Tojikiston uchun eng yirik savdo hamkorlaridan biriga aylandi.

2017–2024-yillar davomida ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi keskin oshdi. Agar 2016-yilda O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi o'zaro savdo atigi 70–80 million AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 500 million dollardan oshdi, 2023-yil oxirida esa savdo aylanmasi 600 million dollardan yuqori bo'ldi. Mazkur davrda eksport-import tarkibi ham diversifikatsiyalandi: ilgari savdo asosan oziq-ovqat va kundalik iste'mol tovarlari bilan chegaralangan bo'lsa, keyinchalik sanoat mahsulotlari, kimyoviy moddalar, qurilish materiallari, energetika texnikalari ham almashuvga qo'shildi. Bundan tashqari, ikki davlatning biznes tuzilmalari o'rtasida sanoat kooperatsiyasi bo'yicha qo'shma loyihalar soni ham oshdi.[2]



Investitsiyaviy hamkorlik nuqtayi nazaridan 2017-yildan boshlab yirik loyihalar amalga oshirila boshladi. O'zbekistondan Tojikistonga sarmoya kiritayotgan korxonalar soni ortib bordi, sanoat korxonalari, qishloq xo'jaligi klasterlari, qurilish materiallari ishlab chiqarish zavodlari va qayta ishlash sanoati obyektlari tashkil etildi.

O'zbekiston tomonidan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar asosan Sug'd viloyati va Tojikistonning boshqa iqtisodiy markazlarida yo'lga qo'yilgan bo'lsa, Tojikiston investorlari esa O'zbekistonda qishloq xo'jaligi, savdo, xizmat ko'rsatish, ta'lim va to'qimachilik sohalarida faoliyat yurituvchi qo'shma korxonalar tashkil eta boshladi.

O'zbekiston–Tojikiston iqtisodiy aloqalarining chuqurlashuvi mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hamkorlik O'zbekiston tashabbusi bilan shakllangan “Markaziy Osiyo – umumiy uyimiz” g'oyasiga mos ravishda hududda barqarorlik, iqtisodiy xavfsizlik va transport-logistika integratsiyasini kuchaytirdi. Ayniqsa, transchegaraviy transport yo'llarining tiklanishi va yangi logistika loyihalarining amalga oshirilishi mintaqadagi savdo aloqalari muvaffaqiyatini ta'minladi. O'zbekistondan Tojikiston orqali Xitoy, Afg'oniston va Pokistonga chiqadigan yo'laklarning faollashuvi, shuningdek, Tojikistonning O'zbekiston orqali Rossiya va Yevropa bozorlariga yo'l olishi savdo-sotiq hajmini kengaytirdi.

Shunga qaramay, 2017–2024-yillar davrida hamkorlikda ayrim muammolar ham mavjud bo'ldi. Eng avvalo, savdo-sotiqdagi transport-logistika xarajatlari yuqoriligi, chegara o'tish punktlarida ayrim davrlarda byurokratik kechikishlar, bojxona tartiblarining turlicha talqin qilinishi kabi masalalar hamkorlikning to'liq amalga oshishiga ma'lum darajada to'sqinlik qildi. Shuningdek, investitsiyaviy hamkorlikda xorijiy kapitalning xavfsizligi, soliq imtiyozlarining turlicha qo'llanishi kabi iqtisodiy-huquqiy masalalar ham mavjud.



Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda O'zbekiston va Tojikiston iqtisodiy hamkorligi nafaqat ikki davlat manfaatlariga xizmat qiladi, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy barqarorlik va integratsion aloqalarning rivojlanishiga ham asos bo'lib xizmat qiladi. Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy munosabatlarni chuqurlashtirish, ulardagi mavjud imkoniyatlar va muammolarni tahlil qilish, hamkorlik istiqbollarini belgilash ilmiy tadqiqotlar uchun muhim bo'lgan dolzarb masalalardandir.

Mazkur maqola aynan 2017–2024-yillar davrida O'zbekiston–Tojikiston savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorligining shakllanishi, rivojlanish dinamikasi, tarkibiy xususiyatlari, yutuqlari va muammolarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada quyidagi masalalarning ilmiy tahlili olib boriladi:

O'zbekiston–Tojikiston iqtisodiy hamkorligining shakllanishiga ta'sir etgan omillar;

Ikki tomonlama savdo aylanmasining dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlari;

Investitsiyaviy hamkorlikning rivojlanish holati va yirik qo'shma loyihalar;

Transport-logistika va energetika sohasidagi iqtisodiy integratsiya imkoniyatlari;

Savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari;[3]

Shuni ta'kidlash joizki, ushbu mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar nisbatan kam o'rganilgan bo'lib, asosan statistik ma'lumotlar, iqtisodiy diplomatiya yutuqlari yoki integratsion siyosatga doir tahlillardan iborat bo'lib kelgan. Ammo savdo-iqtisodiy hamkorlikning chuqur tahlili, qo'shma loyihalarning samaradorligini baholash, investitsion jozibadorlik omillarini o'rganish ilmiy-amaliy jihatdan yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli ushbu maqola O'zbekiston–Tojikiston iqtisodiy aloqalarining ilmiy tahliliga qo'shimcha hissa qo'shadi.





O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tarixiy jihatdan uzoq davrlarga borib taqaladi. Biroq 2017-yildan keyin ushbu munosabatlar yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Bu avvalo O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Yaxshi qo'shnichilik va mintaqaviy hamkorlik siyosati"ning hayotga tatbiq etilishi natijasidir. O'zbekiston Prezidentining 2017-yil mart oyida Tojikistonga amalga oshirgan davlat tashrifi ikki mamlakat iqtisodiy hamkorligi tarixida burilish nuqtasi bo'ldi. Muzokaralar davomida savdo, energetika, transport-logistika, turizm, investitsiya va sanoat kooperatsiyasi yo'nalishida 27 ta kelishuv imzolandi.

2018-yilda esa ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalari sezilarli faollashdi. Toshkent va Dushanbe shaharlarida o'tkazilgan biznes forumlarda 50 dan ortiq savdo shartnomalari tuzildi. Shu yili ikki davlat o'rtasida "Do'stlik va yaxshi qo'shnichilik to'g'risida" shartnoma imzolandi. Bu hujjat iqtisodiy hamkorlikning institutsional asosini mustahkamladi. Shuningdek, chegara nazorati yengillashtirildi, transport qatnovlari tiklandi, viza rejimi bekor qilindi. Bu o'zaro savdoning kengayishi uchun muhim omil bo'ldi.

2019-yilda ikki davlat o'rtasida Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha Hukumatlararo komissiya faoliyati qayta tiklandi. Aynan shu davrda sanoat hamkorligi bo'yicha ko'plab qo'shma loyihalar ishlab chiqildi. Elektr energiyasi almashinuvini tiklash, avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqarish, to'qimachilik hamkorligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish bo'yicha kelishuvlar erishildi. Shu tariqa qisqa vaqt ichida O'zbekiston–Tojikiston iqtisodiy aloqalari uzviy va tizimli tus oldi.

Ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalari 2017–2024-yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. 2016-yilda savdo hajmi 70 million AQSH dollaridan oshmagan bo'lsa, 2018-yilga kelib bu ko'rsatkich 300 million dollarga yetdi. 2020-yilda pandemiya sharoitiga qaramay o'zaro savdo 500 million dollardan oshdi. 2023-yilda savdo aylanmasi 600 million dollarga, 2024-yilda esa





700 million dollarga yaqinlashdi. Ikki tomonlama kelishuvlarga ko'ra, 2026-yilga borib o'zaro savdo hajmini 1 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan.[4]

Savdo hajmining kengayishi eksport-import tarkibining diversifikatsiyalanishi bilan ham bog'liq bo'ldi. O'zbekiston Tojikistonga quyidagi mahsulotlarni eksport qilishni yo'lga qo'ydi:

- qurilish materiallari (sement, g'isht, marmar);
- neft-kimyo mahsulotlari (polietilen, plastmassa granulalari);
- qishloq xo'jaligi texnikalari va mashinasozlik mahsulotlari;
- avtomobil ehtiyot qismlari;
- elektr texnika mahsulotlari;
- oziq-ovqat mahsulotlari (un, shakar, o'simlik yog'i, go'sht mahsulotlari).

Tojikiston esa O'zbekistonga quyidagilarni eksport qiladi:

- alyuminiy mahsulotlari;
- elektr energiyasi;
- quruq meva va sabzavotlar;
- paxta tolasi va ip-kalava mahsulotlari;
- tog'-kon sanoati xomashyo resurslari;
- qurilish toshlari va tabiiy marmar.

Ayniqsa, 2021-yildan boshlab ikki davlat o'rtasida savdo balansining muvozanati ta'minlana boshladi. Dastlab O'zbekiston eksporti ustun bo'lgan bo'lsa, keyinchalik Tojikistonning alyuminiy, tog'-kon resurslari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti oshib bordi. Savdo ko'lamining ortishi ikki davlatning iqtisodiy o'zaro bog'liqligini kuchaytirdi va umumiy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamladi.





Investitsion hamkorlik savdo-iqtisodiy aloqalarning asosiy qo'shimcha yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. 2017-yildan boshlab O'zbekistonda Tojikiston kapitali ishtirokida 100 dan ortiq qo'shma korxonalar tashkil etildi. Ular asosan xizmat ko'rsatish, savdo, qurilish va qishloq xo'jaligi sohalarida faoliyat yuritmoqda. O'z navbatida, Tojikistonda O'zbekiston kapitali ishtirokidagi sanoat korxonalari soni ortib bormoqda. Sug'd viloyati Tojikistonda O'zbekiston investitsiyasi eng ko'p yo'naltirilgan hudud bo'ldi.

O'zbekiston tomoni tomonidan Tojikistonda amalga oshirilgan investitsiya loyihalaridan ayrimlari:

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi "Sug'dsment" qo'shma korxonasi;
Tojikistonning Spitamen shahrida paxta tozalash va to'qimachilik kombinati;

Qayta ishlash sanoatini rivojlantirish bo'yicha Qo'rg'on tepa shahri yaqinida agroklastar;

Qandolat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi qo'shma zavodlar;

Qurilish uchun plastik va metall mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar.

Investitsiya hamkorligi yo'lga qo'yilishida ikki davlat hukumatlarining qo'shma iqtisodiy dasturlari muhim omil bo'ldi. 2018-yilda "O'zbekiston–Tojikiston Investitsiya forumi" tashkil etildi. Ushbu forum investorlarga qo'shimcha kafolatlar taqdim etdi, soliq imtiyozlari va erkin iqtisodiy zonalarda qo'shma loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratdi.[5]

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston–Tojikiston iqtisodiy hamkorligi strategik ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat ikki davlatning iqtisodiy taraqqiyotini qo'llab-quvvatlaydi, balki Markaziy Osiyo mintaqasida integratsion jarayonlarning kuchayishiga ham katta hissa qo'shadi. Kelgusi yillarda





hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida sanoat kooperatsiyasi, energetika integratsiyasi, transport-logistika tarmoqlarini yaxshilash, qo'shma eksport koridorlarini yaratish va qo'shma texnoparklar tashkil etish belgilangan. Shunday qilib, 2017–2024-yillarda yaratilgan iqtisodiy siyosiy asoslar O'zbekiston–Tojikiston hamkorligining barqaror rivojlanishi uchun strategik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 452 b.
2. Karimov N. Markaziy Osiyoda iqtisodiy hamkorlik: imkoniyatlar va istiqbollar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 287 b.
3. Rasulov A. Tashqi savdo siyosati va investitsion integratsiya. – Dushanbe: Irfon, 2019. – 198 b.
4. Usmonov Q. Mintaqaviy iqtisodiy aloqalar nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 340 b.
5. To'raev B. Iqtisodiy diplomatiya asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot universiteti nashriyoti, 2018. – 276 b.